

## Q'RTA OSIYO HUDUDIDA MITRA XUDOSIGA BOG'LIQ ILMIY TADQIQOTLAR

*Rahmonberdiyeva Mahkamoy Jo'ra qizi*  
*Termiz davlat universiteti doktoranti*

## НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ БОГА МИТРЫ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

*Рахмонбердиева Махкамой Жўра кизи*  
*Докторант Термезского государственного университета*

## SCIENTIFIC RESEARCH ON THE GOD OF MITRA IN CENTRAL ASIA

*Rahmonberdieva Mahkamoy Jo'ra qizi*  
*PhD student of Termiz State University*

[mrahmonberdiyeva@gmail.com](mailto:mrahmonberdiyeva@gmail.com)

Tel: +998 (99) 513-21-13

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'rta Osiyo olimlari tomonidan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan moddiy ashyolar (monumental ibodatxonalar va petrogliflar) tahlili, olimlarning ilmiy qarashlari o'rganilib xulosalar berilgan.

**Tayanch so'zlar:** Mitra, Jarqo'ton, bronza davri, diniy qarashlar, shimoliy Afg'oniston, qadimgi davr, Avesto, O'rta Osiyo olimlari.

**Аннотация:** В статье анализируются материальные объекты (монументальные храмы и петроглифы), найденные учёными Средней Азии в результате археологических раскопок, изучаются научные взгляды учёных, приводятся выводы.

**Ключевые слова:** Митра, Жаркотон, бронзовый век, религиозные взгляды, северный Афганистан, древность, Авеста, учёные Средней Азии.

**Abstract:** This article analyzes the material objects (monumental temples and petroglyphs) found by Central Asian scientists as a result of archeological excavations, studies the scientific views of scientists, and gives conclusions.

**Key words:** Mitra, Jarkoton, Bronze Age, religious views, northern Afghanistan, ancient times, Avesta, Central Asian scholars.

### KIRISH

O'rta Osiyo arxeologiyasida din tarixi bo'yicha nihoyatda katta ishlar qilindi. Qadimgi tarixiy yodgorliklarda qazishma ishlari olib borildi. Bu izlanishlar natijasida, O'rta Osiyoning turli hududlarida ibodatxona qoldiqlari topildi. Bu moddiy manbalardan o'tmishda ajdodlarimizning diniy tasavvurlari haqida ma'lumotlar olishimiz mumkin.

Mitraizm bu quyosh va yorug'lik xudosi sifatida alohida yakkaxudolikka asoslangan dinning

ko'rinishi shaklida paydo bo'lgan degan qarashlar ham fanda mavjud. Yurtimizda uchraydigan topilmalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Mitra podsholarga madad bergan yo'l boshi sifatida tasvirlanadi. Mitraizmga sig'inadigan aholi hudud jihatidan ham ulkanligini va qadimgi dunyoning sivilizatsiya markazlarini tashkil etishi, uning qudratidan darak beradi. [1, 65-68]

Mitraga sig'inishning kelib chiqishi an'anaviy ravishda miloddan avvalgi 2-ming yillikda yashagan Hind-Oriylar va Eron-Oriylarning ajdodlarining

e'tiqodlari bilan bog'liq. Aniq davri Miloddan avvalgi. 18-17-asrlarda Yaqin Sharqda kuzatiladi.[2, 288]

### USULLAR

Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar – xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Mitra ilohi va uning O'rta Osiyo olimlari tomonidan o'rganilishidan iborat.

### NATIJALAR

Mitra haqidagi eng qadimgi yozma ma'lumotlar Hind-ariy xalqlari manbalarida saqlanib qolgan. Ularda Mitanni hukmdori Shattivazning Xetlar bilan shartnomasi (mil.av. II ming yillikning o'rtalari)da xudolar Mitra, Varuna, Indra va egizaklar Nasatya nomlari bilan tasdiqlangan. Undan tashqari, Gerodot Yevroosiyo va O'rta Osiyo xalqlarining katta qismi itoat etgan Goytosir xudosini Appolon bilan qiyoslagan bo'lsa, tarixchilar bu borada tadqiqotlar olib borib, Gaeti Sura (Goytosir - yaylovlar egasi) Mitra ekanligini isbotlab bergan.[3, 19-27]

Biz tadqiq qilayotgan Mitra xudosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar Sovet davridan buyon davom etib kelmoqda. Mitra kulti va uning arxeologiyasi bilan chuqur shug'ullangan olim bu sovet arxeologi va sharqshunos olimi Kuzmina, Elena Efimovna hisoblanadi. Mitraning quyosh xudosiga xos xususiyatlari bor: u o'zining osmonida quyoshga hamroh bo'ladi. Quyosh bilan parvozi tushirilgan qoyatosh suratlarida juda ko'p uchraydi. Quyosh nurining yaxshilik va haqiqat bilan bog'lanishi ko'pchilik millat vakillari madaniyatiga xosdir.

Ba'zi tadqiqotchilar quyosh boshi tasvirlarini Mitra bilan bog'lashadi. Bronza davri petrogliflarida mavjud bu surtlar Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod viloyati Toguz-Torouzskom tumani milliy bog'ida joylashgan Saymali-tosh surtlari (1-rasm), va Qozog'iston Respublikasi Almata shahridan 120 km shimolda Ili daryosi bo'yida joylashgan Tamg'ali-tosh suratlari (2-rasm), qurol bilan raqsga tushgan figuralar tasvirlari bilan birga keladi. Olimaning ilmiy qarashlarida bu hudud aholisi asosan Mitraga e'tiqod qilishi bilan, bevosita petrogliflarda o'z tasdig'ini topgan deydi[4].



1-rasm. Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod viloyati Toguz-Torouzskom tumani milliy bog'ida joylashgan Saymali-tosh surti (Neolit va Bronza davriga oid petroglif).



2-rasm. Qozog'iston Respublikasi Almata shahridan 120 km shimolda Ili daryosi bo'yida joylashgan Tamg'ali-tosh surati (Bronza davriga oid petroglif).

Eronda Zardushtiylikning tarqalishi va rivojlanishi ustida ilmiy tadqiqotlar olib borgan Buyuk Britaniyalik eron olimi, zardushtiylik va manixeyizm tadqiqotchisi Nora Elizabet Meri Boysdir. Meri "Zardushtiylik. E'tiqod va urf-odatlar" asarida Mitra xudosi haqida to'xtalgan. Mitrani quyoshga tenglashtirilgan iloh sifatida tarif bergan[5]. Biroq, Zardushtiylik dini paydo bo'sada, avvalgi butparastlik etiqodidagi xudolarning bir xil aniq munosabatlari bilan tanish bo'lgan. Zardushtiylikda yangi qabul qilingan Mitra kulti obrazi eronliklar uchun to'siq bo'la olmadi. Mitra uzoq vaqt davomida olov va quyosh xudosi sifatida hurmat qilingan, garchi olov va quyosh xudolari mavjud bo'lsa ham.

Bizning hududimizda bronza davriga oid Jarqo'ton, Dashtli, Togolok, Gonur yodgorliklarida markazlashgan, monumental ibodatxonalar o'rganildi. Ibodatxonalarning diniy xarakteri masalasida olimlar bir fikrga kelishmagan bo'lsada, ko'pchilik tadqiqotchilar ularni protozardushtiylik ibodatxonalarini, deb baholadilar.

Ammo, bu yodgorliklarda zardushtiylik odatlariga tamoman zid bo'lgan arxeologik manbalar ham borki, bular jumlasiga, mayitni yerga qo'yish va mayit bilan ashyolar qo'shib ko'mish an'anasidir. Tarixchi olim Shaydullayev Alisher Shopo'latovich tadqiqotlarida o'zining ilmiy qarashlarini bildirib, shunday xulosa qilgan: mayitlar asosan lahad tarzidagi qabrlarga g'ujanak holatda, erkaklar o'ng, ayollar chap biqini bilan, ashyolar qo'shib yerga qo'yilgan. Mayitni yerga, boy aslahalar bilan ko'mgan aholi "Protozardushtiylik" diniga itoat etgan bo'lishi mumkin emas. O'rta Osiyoning bronza davri aholisi asosan Mitra kultiga itoat etgan. Mitra kulti bo'yicha mayitni yerga qo'yish (ko'mish) mumkin bo'lgan. Negaki, Mitra haqidagi xabarlardan unga itoat qilgan xalqlar mayitlarni yerga ko'mganligi haqidagi ma'lumotlarni topish mumkin[6, 63-65]. Olimning so'nggi yillarda amalga oshirgan dala tadqiqotlari natijasida, O'rta Osiyoda olov (quyosh) kulti eneolit davridan mavjudligi otashgox altarlar misolida o'z yechimni topgan. Jarqo'ton ibodatxonasida jami 8 ta altarning joylashganligi ham uning quyosh xudosiga atab ko'rilganligini tasdiqlaydi. Bronza davriga oid Dashtli, Arkaim, ilk temir davriga oid Tallashqon yodgorliklari quyosh ko'rinishida qurilgan. Demak, me'morchilik obidalari Mitraning Markaziy Osiyoda Zardushtiylikka bo'lgan davrlarda bosh xudo vazifasini bajarganligini ko'rsatadi deb ta'kidlagan. Gliptikaga oid manbalar bu davrda afsonaviy va mifik personajlar va epik qahramonlar obrazlari yaratilganligini ko'rsatmoqda. Albatta, bu obrazlarning ko'pchiligi Xarappa va Oks sivilizatsiyasi ajdodlari birga yashagan davr "Hind-Eroniy birlik" davrida yaratilgan deb xulosa beradi.

Mitra Markaziy Osiyo xalqlarida Zardushtiylik davrigacha, bosh xudo vazifasini bajarganligi xususida aytib o'tishgan. Din tarixi bo'yicha yetuk mutaxassis Vladimir Nikolayevich Toporov Hind-Eroniy xalqlarida mil.av. 3-ming yillikdan 1-ming yillikning o'rtalarigacha Mitra bosh xudo vazifasini bajarib kelgan deb xisoblaydi[7, 193-194].

Mil.av. 4-ming yillik so'nggida insoniyat tarixida ilk marotaba Mesopotamiyada shakllangan ilk davlatchilik munosabatlari jarayoni 3-ming yillikda sharqqa – Eron, Hindiston tomon kengayadi. 3-ming yillik so'nggida Janubiy Turkmanistonning Tejen, Murg'ob vohalarida, 2-ming yillik boshlarida esa ilk davlatchilik munosabatlari Baqtriyada ham shakllanganligini Sopolli madaniyati va unga

turdosh Dashtli madaniyati yodgorliklari misolida o'rganildi. Olimlarning ilmiy tadqiqotlariga ko'ra Mitra kulti neolit, enolit va bronza davrlarida asosiy xudo bo'lib, otashparastlik nomi bilan ham mavjud bo'lgan degan nazariyani ilgari surgan[8].

Shimoliy Afg'oniston hududida Dashtli madaniyatini o'rgangan V.I.Sarianidi Qadimgi Baqtriya davlatchiligi to'g'risida shunday deydi: "Baqtriyada bronza davrida shahar madaniyatining gullashi bu yerda Ahamoniylargacha bo'lgan davrda davlatlarning paydo bo'lishiga olib kelgan"[9,151-155]. Davlatchilik mavzusida ilmiy qarashlarga to'xtaladigan bo'lsak, har bir davlatning diniy qarashlari mavjud bo'ladi. Arxeologik ilmiy tadqiqot topilmalari Shimoliy Afg'onistonda bu davrda, aholi Mitra kultiga sig'ingan va otashparastlikka asoslangan, monumental ibodatxonalar qurgan degan to'xtamga kelgan olim[10, 145-147]. Bundan tashqari Turkmaniston hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida V.I. Sarianidi tomonidan bronza davri markaziy yodgorliklarining umumiy maydoni 12-20 gektargacha bo'lgan monumental ibodatxona ochilgan. Ochiq joyda joylashgan. Vohalarning markazi bo'lgan shaharlar ibodatxona mubodlari tomonidan boshqarilganligini qazishma materiallari isbotlaydi.

A.A.Asqarov va T.Sh.Shirinovlar Jarqo'ton yodgorligini ilk shaharlar toifasiga kiritishadi va ilk davlatlarning "karlikoviy" yoki "chifdom" formasi bo'lganligini tasdiqlaydi[11].

Miloddan avvalgi 15-asrda Sopollitepada hayot izlari so'nadi va yerli aholining Muzrabot vohasidan Sherobod daryosi havzalariga, aniqrog'i qadimdan uning irmog'i hisoblangan Bo'stonsoy qirg'oqlariga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. Bu yodgorlik hozirda Jarqo'ton nomi ostida ma'lum bo'lib, uning umumiy maydoni 100 gektardan ortiq.

1975-yildan buyon A.Asqarov va uning shogirdlari Jarqo'ton yodgorligida muntazam ravishda qazish ishlarini olib borishdi. Natijada bu yodgorlikda 3 mingga yaqin qabr, qishloq-qo'rg'on, olov



ibodatxonasi, qal'a-saroy kabi inshootlar qazib ochildi. Jarqo'ton shahar-davlatining asosiy boshqaruvi "Jarqo'ton olov ibodatxonasi"dir. Tepalikda joylashgan ushbu inshoot nafaqat ibodatxona, balki saroy-ibodatxona vazifasini o'tagan. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, eng avval bu yerda to'g'ri to'rt burchak shaklli, monumental bino bunyod etilgan. Bu binoni aniq ishonch bilan saroy deb atash mumkin. Negaki, bu yerda 7x7 metr ko'lamli qabulxona, uning atrofida yo'laksimon xonalar qurilib, oq gips bilan suvalishidan tashqari, devorlarga ot tasviri ifodalangan terrakot haykalchalarning yopishtirilishi saroylarga xos bezak usulidir. A.A.Asqarov va T.Sh.Shirinov tomonidan o'rganilgan "Jarqo'ton olov" ibodatxonasi quriladi, yani bu yerda 5 metr qalinlikdagi mudofaa devoriga ega bo'lgan to'g'ri to'rt burchak shaklli saroy-ibodatxona bunyod etiladi. Bu binoni saroy-ibodatxona deb atash me'moriy yechim jihatidan va jamoaning ijtimoiy qatlamlari jihatidan ham to'g'ri keladi. Ilk sinfiy munosabatlarning shakllanishi davrida hukmdorlar va kohinlar alohida ijtimoiy guruhlar sifatida bo'linmaganligini inobatga olsak, biz chiqargan xulosa tarixiy ekanligi ko'rinadi.

Olimlarning fikriga ko'ra Shimoliy Afg'oniston va Janubiy Turkmaniston hududida tarqalgan dinniy qarashlar formasi Janubiy O'zbekiston hududida joylashgan Sopolli madaniyati diniy qarashlari bilan farq qilmaganligini tasdiqlashadi[12]. A.A. Asqarov va T.Sh. Shirinovning umumiy fikriga ko'ra, Jarqo'ton olov ibodatxonasi nafaqat shahar, balki butun vohaning diniy markazi vazifasini bajarib kelgan deb qarashadi[13].

### MUNOZARA

Mitra kulti ustida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, neolit va bronza davrida O'rta Osiyo, Hindiston va Eron hududlarida Mitraizm dinining vujudga kelishi va uni moddiy madaniyatida aks etganligini ko'rishimiz mumkin. Topilgan moddiy va yozma manbalar tahlil qilinishi bilan Mitraizm xudosi Mitra keyingi davrlarda, Zardushtiylik dini vujudga kelganda ham

o'z xususiyatlarini yo'qotmagan. Shuningdek, ularning ko'mish marosimlarida ham gavdalanadi.

### XULOSA

Xulosa o'rnida O'rta Osiyo arxeologik izlanishlar natijasida ko'plab topilmalar topilishi, uning tarkibida diniy monumental ibodatxonalar mavjudligi bizning hududlarda neolit, bronza, temir davrlarida mahaliy aholi diniy qarashlarida Mitra kultiga alohida sig'inish mavjudligini va bugungi kunga qadar saqlanib qolganligiga guvoh bo'lamiz. Mitra zardushtiylik dini vujudga kelishi bilan, bu dinning asosiy xudolaridan biri sifatida "Avesto"da ko'p marotaba takrorlanadi. Bugungi kunda bizning kundalik ho'jalik shakllarida uchrab turuvchi olovni muqaddas tutilishi, Mitra kultining sinonimi sifatida nomi o'zgarganligidan darak beradi. Ming yillar davomida mahalliy xalq orasida nomi o'zgarsada saqlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahmonberdiyeva M.J. Sharq olimlarining tadqiqotlarida Mitra kultining ifodalanishi. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: Ilmiy jurnal.-№7/3 (116), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2024 y. – 175 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>. 65-68 betlar.
2. Кюмон Ф. Мистерии Митры: Пер. с фр. СПб., 2000. С. 288.
3. Ртвеладзе Э. Воины Митры // Общественное мнение. Права человека– № 1–2.–1992.– С. 19–27.
4. Е.Е. Кузьмина. Откуда пришли индоарии. Материальная культура племён андроновской общности и происхождение индоиранцев. М.: «Восточная литература». 1994.Е.Е. Кузьмина Откуда пришли индоарии. Материальная культура племён андроновской общности и происхождение индоиранцев. // М.: «Восточная литература». 1994. 464 с. ISBN 5-02-017473. 261 с.
5. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. Зороастрийцы. Верования и обычаи. Пер. с англ. И. М. Стеблин-Каменского. Послесл. Э. А. Грантовского. Москва, Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1987.

6. А.Ш. Шайдуллаев. ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ДИНЛАРИ ТАРИХИДА МИТРА ОБРАЗИ. ЎЗБЕКИСТОН АРХЕОЛОГИЯСИ МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА: ЮТУҚЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР. Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 25 йиллигига бағишланган халқаро илмий КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ. Самарқанд ш., 15-16 сентябрь 2016 й. 63-65 бетлар.
7. Топоров В.Н. Миф. Ритуал. Символ. Образ. Исследования в области мифопоэтического: Избранное. – М.; Издательская группа «Прогресс» - «Культура», 1995 – 624 с. 193-194 стр.
8. Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы на юге Узбекистана. Ташкент, «ФАН», 1977; Аскарлов А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан. Ташкент, «Фан» 1983; Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы на юге Средней Азии, Самарканд, 1993; Сарияниди В.И. Древние земледельцы Афганистана. М., 1977.
9. Сарияниди В.И. Древние земледельцы Афганистана. – С. 151-155.
10. Сарияниди В.И. Древние земледельцы Афганистана. М., 1977. – С. 145-147.
11. Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура ... - С. 114.
12. Т.Ш. Ширинов. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Самарканд 1993. Б 125.
13. Аскарлов А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан. – Т., Фан, 1983; б 41.

